

## Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida

### MA'LUMOT

Yoshlar ishlari agentligiga jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi manbalar orqali **shikoyat** qoldirishi mumkin:

- ❖ *Prezident virtual va xalq qabulxonalarini orqali;*
- ❖ *1093 qisqa telefon raqami orqali;*
- ❖ *[info@yoshlar.gov.uz](mailto:info@yoshlar.gov.uz) elektron pochta orqali;*
- ❖ *[www.yoshlar.gov.uz](http://www.yoshlar.gov.uz) sayti orqali;*
- ❖ *og‘zaki va yozma tarzda;*
- ❖ *Agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali.*

O‘tgan 2023-yil davomida birgina Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali **17 ta** shikoyat kelib tushgan. Ushbu shikoyatlarning **10 tasi bajarilgan, 7 tasi rad etilgan.**

Qonunchilikka muvofiq, shikoyatlar kelib tushgan kundan e‘tiboran **o‘n besh kun** ichida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, **bir oygacha** bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi va bu haqida belgilangan tartibda tashkilotning javob xati yo‘llanadi.

Bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga ariza yoki shikoyat jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) sodir etilganligi yoxud qaror qabul qilinganligi ma‘lum bo‘gan paytdan e‘tiboran uzog‘i bilan **bir yildan kechiktirmay** beriladi.

Ariza yoki shikoyat berishning uzrli sababga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan muddati arizani yoki shikoyatni ko‘rib chiqish Agentlik yoki uning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tiklanadi.